

## ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA

**Shirinova Muborak Hakim qizi**

Samarqand davlat chet tillari instituti 2301-guruh talabasi

E-mail: [muborakshirinova2005@gmail.com](mailto:muborakshirinova2005@gmail.com)

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada, insoniyat va texnologiya o'rtasidagi munosabatlar, texnologiyaning inson hayotidagi tutgan o'rni, bugungi kunda qay darajada rivojlanganligi va texnologiyaning ijobiy va salbiy solishtirmalari haqida ham aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, zamonaviy texnologiya, ijobiy va salbiy oqibatlar, axborot, internet.

### KIRISH

Bilamizki, XXI asr texnologiya asri hisoblanadi va bu asrda texnologiya jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Zamonaviy texnologiya inson hayotining barcha sohalarida keng tarqalgan va turli jihatlari bilan rivojlanmoqda. U turli xil sohalarni o'z ichiga oladi. Masalan:

**Sun'iy intellekt:** Bu texnologiya mashinalarning inson kabi fikrlashi, o'rganishi va harakat qilishi uchun dasturiy ta'minotni yaratishni o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt ko'plab sohalarda, jumladan tibbiyot, ta'lim, avtomatlashtirilgan xizmatlar va boshqa ko'plab sohalarda qo'llaniladi.

**5G texnologiyasi:** Mobil aloqa uchun yangi avlod tarmoq texnologiyasi bo'lib, yuqori tezlikda internet ulanishini va past kechikishni ta'minlaydi. Bu texnologiya virtual va qo'shilgan reallik, smart shaharlar va masofaviy ishlash uchun muhim.

**Kvant kompyuterlar:** An'anaviy kompyuterlardan ko'ra juda yuqori tezlikda va samaradorlikda ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan kvant kompyuterlar, murakkab matematik hisob-kitoblar va boshqa katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlashda qo'llaniladi.

**Internet of Things (IoT):** Bu texnologiya internet orqali bir-biri bilan bog'langan qurilmalardan foydalanish imkonini beradi. Uydagi aqlli qurilmalar, avtomobillar, sanoat tarmoqlari va sog'liqni saqlash tizimlari IoTdan foydalanadi.

Texnologiya va insoniyatning taraqqiyot yo'lidagi birgalikdagi rivoji inson hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda texnologiya hayotimizning ajralmas qismiga aylangan, unda har bir yangi ixtiro yoki innovatsiya o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Texnologiya qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar, olimlar va

boshqa mutaxassislar va manfaatdor tomonlar uchun diqqat markazida bòlishining asosiy sabablaridan biri shundaki, u bizning kundalik faoliyatimizga qulaylik qòshadi, shu bilan birga vaqtni tejaydi va hayot sifatini oshiradi. Insoniyat texnologiyaga bogliq bòlib bormoqda, va bu jarayon qanchalik ijobiy yoki salbiy bòlishi haqida bahslashish mumkin.

*Texnologiyaning ijobiy ta'sirlari*

Texnologiya insoniyat hayotini yaxshilashda katta ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot sohasidagi rivojlanish tufayli turli kasalliklarni davolash osonlashdi, umr davomiyligi uzayib , hayot sifati yaxshilandi. Masalan, jarrohlik amaliyotlarida robotlar qòllanilishi operatsiyalarni aniqroq va xavfsizroq amalga oshirish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar ta'lim, aloqa va ishbilarmonlik sohalarida samaradorlikni oshirib, yangi imkoniyat yaratmoqda.

*Ta'lim va bilim olish.*

Onlayn ta'lim platformalari va raqamli o'quv resurslari har kimga istalgan joydan bilim olish imkonini berdi. Internet orqali ochiq kurslar (MOOC), vebinarlar va video darslar ta'lim sifatini oshirdi va uni ko'proq insonlar uchun qulay qildi.

*Iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlari*

Texnologik innovatsiyalar yangi sohalar, masalan, IT, sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik sohalarini rivojlantirib, yangi ish o'rinlarini yaratdi. Bu iqtisodiy o'sishni tezlashtirdi va turli xil yangi biznes modellarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

*Transport va logistika sohasidagi inqilob.*

Elektr avtomobillari, o'zini o'zi boshqaruvchi transport vositalari va GPS texnologiyasi transport tizimini xavfsizroq va samaraliroq qildi. Logistika sohasida avtomatlashtirilgan tizimlar yuklarni tez va aniq yetkazib berishni ta'minlaydi.

*Muloqot va axborot almashinuvi.*

Internet va ijtimoiy tarmoqlar yordamida insonlar butun dunyo bòylab tezkor aloqa òrnatish imkoniyatlariga ega bòldilar. Axborot oqimi kengayib, yangiliklar, bilim va gòyalar soniya ichida tarqalmoqda. Ushbu texnologiyalar dunyoni yanada ochiqroq va globalashtirilgan qildi, va bugungi kunda internet orqali har qanday axborotga erishish juda oson.

*Texnologiyaning salbiy ta'sirlari*

Texnologiyaning rivoji bilan birga muammolar yuzaga kemoqda. Insonlar òrtasidagi mehr-muhabbat kamaymoqda va kòp hollarda virtual aloqa ustunlik qilmoqda . Bu esa insonlar òrtasidagi dòstlik va hissiy boglanishni zaiflashtirmoqda. Bundan tashqari, texnologiya inson mehnatiga bòlgan ehtiyojni kamaytirmoqda va bu

sababli ba'zi kasblar yoqolib bormoqda. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish tufayli millionlab ish joylari xavf ostida qolmoqda. Hozirgi kunda, yoshlar zamonaviy kompyuter o'yinlariga haddan tashqari berilib ketgan bo'lsa, ularni o'ynayotganda u qahramonlar roliga kirishib ketadi va natijada haqiqiy vaqt va hayot tushunchasini yoqotadi.

### *Texnologiyaning atrof-muhitga ta'siri*

Insoniyat zamonaviy texnologiya orqali ko'plab sohalarda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi, ammo bu jarayon tabiatni zaharlamoqda. Ishlab chiqarishdagi turli xil chiqindilar, energiya sarfi va texnologik qurilmalarning qisqa muddatli ishlatilishi ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, texnologiyaning barqaror rivojlanishiga e'tibor qaratish zarur.

Kelajakda inson va texnologiya munosabatlari

Texnologiya insoniyat hayotini yanada yaxshilashi va yanada ko'proq imkoniyat yaratishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt, robotexnika va kosmik tadqiqotlar kelajakka katta ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bu jarayon texnologiya insoniyatni nazorat qilishi o'rniga, inson texnologiyani boshqarishi muhimdir. Yangi texnologiyalar bilan bog'liq axloqiy va ijobiy masalalarni hal qilishda muvozanat saqlash lozim.

### **XULOSA**

Zamonaviy texnologiyalar kundalik hayotimizni o'zgartirib, uni qulay va samaraliroq qiladi, shuningdek, kelajakdagi innovatsiyalar uchun poydevor yaratadi. Ammo, har bir narsaning me'yori yaxshi deganlaridek, zamonaviy texnologiya asrida yashasak ham texnologiyadan kamroq va foydali yo'llarda foydalanishni o'rganishimiz va o'rgatishimiz kerak va bu bizning kelajagimiz uchun vazifadir. To'g'ri, texnologiya va insoniyat o'rtasidagi munosabat doimiydir, lekin ijobiy ta'sirlari uning salbiy tomonlari bilan bir qatorda turadi, shu bois insoniyat texnologiyalarni oqilona va ehtiyotkorlik bilan rivojlantirishi kerak. Kelajakda texnologiya hayotimizni qanday o'zgartirishi noma'lum, ammo uni to'g'ri boshqarish orqali insoniyat yanada yorqinroq kelajakni qurishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Алимova, Ш. А., & Ниёзова, И. Н. (2021). Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур. Academy, (1 (64)), 55-57.
2. Н Сулейманова, Тил Белгиларининг Нутққа Кўчирилиши.
3. Kamardin I. N. Razvitie texniki v drevnem mire (uchebnoe posobie). Penza, 2006. — 72 s.
4. НМ Сулейманова, ЖР Насруллаев, Номинативные особенности языковых единиц, Молодой ученый, 212-213, 2018.

5. Раҳмонов, М. (2021). Сўзнинг Саломатликка Таъсири. Scientific journal of the Fergana State University, (6).
6. НМ Сулейманова, АРЎ Идиев, Макрономинатив Маъно Ортида Макропропозитив Структура Ҳақида, Academic research in educational sciences 2 (4), 798-802, 2021.
7. Raximbekova Z. M. Materialdar mexanikasi terminderiniң ag‘ilshinsharorishsa-qazaqsha tўsyndirme sўzdigi ISBN 9965-769-67-2.
8. T. Editors of Encyclopaedia (2024, March 13). technology. Encyclopedia Britannica.
9. Н. М Сулейманова, О Структурной Схеме Номинативного Значения, Ученый XXI века, 2016.
10. Uktamovna, M. M. (2022). Epitetning Lingvistik Tabiati. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnal.
11. Н Сулейманова, О номинативной функции предложения, Иностранная филология: язык, литература, образование 2 (4 (65)), 88-91, 2017
12. О‘О.Тоиров, I.Karimov, M.Maxsimova. Texnologiya. 8-sinf. Toshkent. 2019.
13. Valieva, N. (2020). King Tāntawādēm's land charter: state of the art and new perspectives.
14. Valieva, N. (2023). MS Parma, Biblioteca Palatina, Parm. 3852: a meeting point for a medieval Ethiopian king-usurper with modern pro-Italian actors. Manuscript and Text Cultures (MTC), 2(1).
15. Shamsiya, A. (2023). HR Management And Coaching In The Innovative Economy As A Method Of Business Management. Modern Science and Research, 2(10), 712-717.